QADIMIY QUVA YODGORLIGI BUDDA IBODATHONASI

Xolmatov Qudratillo Saydmaxmutovich
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya (Abstract):*Mazkur maqolada Quva shaxristonida joylashgan Budda ibodatxonasining o‘rganilish bilan bog‘liq ma’lumotlar keltrilgan.XX asr o‘rtalaridan boshlab Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar doirasida Quva shaxrida joylashgan qadimgi shaxristonning sharqiy qismida ibodatxona ochib o‘rganildi.Mazkur ibodatxona xonalarga ajratib olingan holda o‘rganildi va xonalar vazifalari aniqlandi.Ibodatxonaning katta qismi arablar bosqini davrida yong‘in natijasida shikastlangan bo‘lsa,qolgan qismi mo‘gullar bosqini davrida vayron qilingan degan xulosalar berildi.*

Kalit so‘zlar(Key words): *Ibodatxona, Budda, xom g‘isht, mudofaa, arxeologiyalik tadqiqot, sufa, nisha, rohib.*

KIRISH

XX asrning o‘rtalarida yurtimizda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Farg‘ona vodiysidagi asosiy tadqiqotlar qadimgi Quva yodgorligi harobalariga qaratildi.X-XII asr geograflari tomonidan tilga olingan Qubo shahri aholi manzilgohini o‘rganish ishlari 1956 yildan boshlangan edi.Quvaning tadqiqot ob’ekti sifatida tanlashi boshqa ko‘plab hollarda bo‘lgani kabi,iqtisodiy qurilish extiyojlari bilan bog‘liq edi.Tadqiqotlar arxeolog Y.Y.G‘ulomovning umumiy rahbarligida katta ilmiy hodim V.A.Bulatova (1957-59 yillarda jamoa raxbari),V.D.Jukov va L.I.Albaum (xaykal parchalarini tiklash bo‘yicha tadqiqotar,1958)lar ishtirokida amalga oshirildi.Bundan tashqari kichik ilmiy hodimlar I.Axrorov, M.Aminjanova (1956), D.P.Varxotova (1959), P.Zahidov, X.Muxamedov va labarotoriya yordamchilari R.Burnasheva, U.Alimov, G.Magdiyev, G.Dmitreva va A.Salahuddinovalar mazkur ekspeditsiyada qatnashdilaR[3,B.33].

1956-yilda V.D.Jukov qadimgi Quva shahri harobalarida dastlabki razvedka ishlarini amalga oshirdi.1959 yilda esa V.A.Bulatova Quva aholi punkti yaqinida kichik minora qal’asi (ko‘shk) harobalarini o‘rganib chiqdi.Bino 4-5 metr balandlikdagi loy va toshli stilobat ustiga qurilgan.Uning joylashuvini aniqlashning iloji bo‘lmadi,chunki yodgorlik juda yomon holatda saqlangan edi.Bu erda topilgan katta keramik artefaktlar III-IV asrlarga tegishli.[4,B.88].

1956 yilda V.D.Jukov Quva tumanida maqsadli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirdi va Quva tumanining arxeologik xaritasi tuzib chiqildi.Keyingi yillarda (1957-1958)I.Axrorov tadqiqotlarni davom ettirildi.Tadqiqotlar natijasida 4 ta antik va 22 ta o‘rta asrlarga oid yodgorliklar haritaga tushirildi.1964-1965 yillarda yangi tuman chegaralarini belgilanishi munosabati bilan yodgorliklarni tuman xaritasida qayd etish,ularnining rejalarini vizual ravishda o‘rganish va tozalash,qazishmalar orqali sanalarni aniqlash uchun yangi tadqiqotlar o‘tkazildi.Ushbu tadqiqotlar natijasida yangi chegaralar ichida mintaqada 3 ta xronologik guruhga bo‘lingan 33 ta yodgorlik mavjudligi aniqlandi:bir qavatli (miloddan avvalgi I asr –milodiy I asr); bir qavatli ilk

o‘rta asrlar (IV-VII asrlar) va ko‘p qavatli (milodda avvalgi I asrdan XIII asr boshlarigacha) yodgorliklar guruhiga ajratib olindi [7,B.3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sharq tomondan yodgorlik bo‘ylab to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi ibodatxona qoldiqlari topib o‘rganildi.Ibodatxonaning shimoiy qismida kvadrat shakldagi platforma (6x6 m) joylashgan.Mazkur platformaga uch tomondan ikki qavatli zinalar orqali o‘tiladi.Ushbu zinalar foydalanishdan ko‘ra dekoratsiya maqsadida foydalanilgan bo‘lishi mumkin.Platformaning burchak ustunlari(janubiy tomondagilarda ikkitasi tozalangan) extimol,xaykallar o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.Janubi-sharqiy ustun ostida o‘lchami 0.70x0.60 m va qalinligi 16 cm gacha bo‘lgan,archa yog‘ochidan tayyorlangan yaxshi saqlangan taxta bo‘laklari topilgan.Yog‘och material juda yaxshi holatda saqlangan bo‘lib,faqat ayrim joylarida qatlamlarga ajralishi kuzatiladi.Platforma xom g‘ishtdan (o‘lchami 40x25x8-10 cm) qurilgan va uning yuzasi loyli suvoq bilan qoplangan.Ushbu suvoqning qoldiqlari platformaning yon devorlari hamda zinalarda saqlanib qolgan [2,B.55].

Janubiy va g‘arbiy devorlar bo‘ylab turli tuzilishdagi sufalar(balandligi 0.35-0.40 m) joylashgan edi.Janubiy sufa chiqib turgan tagkurs orqali ikki teng bo‘lmagan qismga ajratilgan oddiy ko‘tarma shaklida bo‘lsa,g‘arbiy sufa xaykallar o‘rnatilgan tagkurslarga olib chiquvchi ikki pog‘onali zinalardan iborat.

Nishlarning qodiqlari (arkali ochilishning eng past qismi va zarhallangan xaykalning asosi) ibodatxonaning janubi-g‘arbiy burchagida aniqlangan.Nishalarning chuqurligi 0.45 va 0.35 m,kengligi esa 1.17 m ni tashkil etgan.[5,B.139].

Sufalar yaqinidagi pol sathida egri chiziqli yuzaga ega bo‘lgan katta xajmdagi suvoq bo‘laklari topilgan bo‘lib,ular nisha arxivoltining qoldiqlari hisoblanadi.

Sufalar,devorlar va ibodatxona poli suvoq bilan qoplangan bo‘lib,yong‘in natijasida jiddiy shikastlangan.Poldagi suvoq ko‘‘kimtir tusga ega bo‘lgan.Shuningdek ustun yoki kolonnalar uchun moljallangan to‘rtta maydon ochib o‘rganilgan.Ular to‘rtburchak shaklda bo‘lib,o‘lchamlari 0.92-0.98 m ni tashkil etadi va toshlar bilan mustahkamlangan.Maydonlardan birida gidroizolyatsiya vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘mirlashgan yog‘och taxtalar saqlangan.Tayanch ustunlar bir-biridan 5 metr masofada joylashgan.

Polning ochilgan qismi X-XI asrlarga oid musulmonlar qabrlari tufayli jiddiy zararlangan.Bu qabrlar janubiy sufa hamda kirish qism yahlitligini ham shikastlagan. Mazkur ibodatxonaning sharqiy devorini aniqlash imkoni bo‘lmagan.Umumiy olganda ibodatxonaning honalarini yarmidan koprog‘i saqlanib qolgan xolos.Agar inshoot simmetrik reja asosida qurilgan deb qabul qilinsa,uning asosiy parametrlarini tiklash mumkin.Biroq ibodatxonaning shimoliy qismini rekonstruksiya qilish murakkab masala bo‘lib qolmoqda [2,B.70].

Ibodatxonaning kirish eshigining kengligi 1.70 m bo‘lgan.Kirish qismining tashqi g‘arbiy burchagi yumaloq shaklda bo‘lgan.Binoning janubiy fasadi chuqur ayvon bilan boyitilgan,uning ostida ilohlar xaykallari joylashgan.Bunday xulosaga kelinishiga sabab qilib ibodatxonaning kirish qismi yaqinida qizdirilgan tuproq qatlami orasidan ko‘p sonli ko‘mirlashgan tosinlar va yog‘och ustunlarning topilganligini ko‘rsatish mumkin.Fasadda saqlanib qolgan sayoz nisha(maxsus oyiq) va undagi devoriy tasvir

qoldiqlari aniqlangan.Mazkur nisha ayvon ostida joylashtirilgan xaykallar uchun fon vazifasinin bajargan bo‘lishi mumkin.

Devor yonida ikki otliq xaykal va ularga xamroh bo‘lgan jangchilar xaykallarining katta-kichik bo‘laklari ham topilgan.Kirish qismi oldida inson bo‘yidan bir necha barobar baland bo‘lgan loy xaykal yotgan holda topilgan.Xaykal atrofida ko‘plab toshlar aniqlangan.Fasad oldida komir,kuygan tuproq va somon kullaridan iborat qatlam qayd etildi.Shuningdek,kesimi 20x7 cm,10x10 cm va 15x17 cm bo‘lgan yog‘och ustun va to‘sinlar mavjudligi aniqlangan.Kirishning g‘arbiy qismida esa ayvon bo‘lmagan ko‘rinadi,chunki bu qismda ko‘mir qatlami topilmadi.Biroq,devor yonida xom g‘ishtdan qurilgan kichik sufa topilgan.Bu erda qurbolik marosimlari uchun mo‘ljallangan idishlar,xushboylantiruvchi va xushboy o‘simliklar sotilgan deb tahmin qilindi.Sufa atrofida kuyish izlari bo‘lmagan 20 ta butun va singan idishlar topildi.Ushbu qo‘lda yasalgan va oddiy idishlar ibodatxona hamda muqaddas xonalardan ham ko‘p miqdorda topilgan,ammo ularda tutun va kuyish izlari saqlangan [9,B.244].

Ibodatxona binosining janub tomonida uzunligi 20.5 metr bo‘lgan hovli joylashgan.Hovli yuzasidagi madaniy qatlamning qalinligi 15-20cm ni tashkil etadi.U asosan ibodatxona devorlarining vayron bo‘lishi natijasida hosil bo‘lgan qatlamlardan iborat.Bu erda topilmalar nisbatan kam bo‘lib,asosan sirlanmagan kulolchilik buyumlari parchalari hamda nisbatan keying davrlarga oid tangalardan tashkil topgan.Ibodatxona hovlisi turar-joy majmuasidan pog‘onali asosga qurilgan paxsa devor orqali ajratib turilgan.Hovlining janubiy qismi katta ochiq maydonga chiquvchi yo‘lakga ega bolgan kirish xonalari majmuasi bilan chegaralangan.

Janubiy fasad umumiy uzunligi 29.7 metr bo‘lgan paxsa devorlardan iborat bo‘lib,unda kengligi 2 metr bo‘lgan bitta nisbatan tor kirish qismi mavjud bo‘lgan.Kirish qism ikki tomondan yon fasadlarning tabiiy davomi hisoblangan antalar (bino fasadining ikki yon tomonida joylashgan,devorning oldinga chiqib turgan tugallovchi qismi) bilan cheklangan.Devor qalinligi ibodatxonaga yaqinlashgan sari 2.65 metrdan 1.20 metrgacha qisqarib borgan [2,B.60].

Fasad chizig‘idagi bir necha burilishlar va devor qalinligini o‘zgarishi kirish majmuasi qurilishidagi loyihaviy xatolar natijasida bo‘lishi mumkin.Chunki kirish qismi ibodatxonaga nisbatan sharqga siljitilgan holda qurilgan va shu sababli hovli rejada trapetsiyasimon shakl olgan.Hovlining sharqiy fasadi faqat kirish qismi hududida saqlanib qolgan.Qolgan qismi ibodatxona devori bilan birga emirilib ketgan.Kirish xonalari har ikki tomondan markaziy koridor atrofida joylashgan bo‘lib,mazkur koridor ham hovliga,ham turar-joy majmuasiga chiqish imkonini bergan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mazkur aniqlangan platforma o‘rganilishi yuzasidan xulosalar shuni korsatadiki,har bir aniqlangan xonalarning ma’lum bir vazifalari mavjud.Koridorning g‘arbiy qismida B,G,D va J xonalari,sharqiy qismida esa A xonasi va Z hovlichasi joylashgan.A xonasi omborxona sifatida xizmat qilgan.Yerga ko‘milgan oltita xumda don,suv,sharob va xushboy moddalar saqlangan [2,B.64].

B va J xonalarida ziyoratchilarga sotish uchun xom loydan yasalgan idishlar tayyorlangan va saqlangan bo‘lishi mumkin.Bu idishlarda Budda haykallari oldida xushboy tutatiqlar yoqilgan.

D xonasi extimol ibodatxona rohiblarining dam olishi yoki ovqatlanishi uchun xizmat qilgan.E xonasi esa ibodatxona hamda turar-joy majmuasini himoya qilish bilan bog‘liq vazifani bajargan.Bu xona ibodatxona devorining ichki bo‘rtib chiqgan qismida joylashgan bo‘lib,uning poli boshqa xonalar sathidan 2 metr balandlikda joylashgan.Bunday baland maydon kuzatuv olib borish va himoya maqsadida foydalanilganligi shubhasiz.

Z hovlichasi kul va chiqindilarni tashlash uchun xizmat qilgan ochiq maydon bo‘lgan.Uning janubiy va g‘arbiy devorlariga oqava suvlarni qabul qilish va chiqarish uchun loy quvurlar o‘rnatilgan.

XULOSA

Ibodatxona hovlisida qurilish inshootlari bo‘lmagan.Faqat g‘arbiy devor bo‘ylab kengligi 6 metr va uzunligi 13 metrgacha bo‘lgan yong‘in izlari saqlangan hudud aniqlangan. Bu yerda yengil yog‘och soyabon joylashgan bo‘lishi mumkin.Ibodatxonaning katta qismining vayron bo‘lishi yurtimizga arablarning kirib kelishi va mo‘g‘ullar bosqini bilan bog‘liq.Islom dinining yoyilish jarayonida yurtimizdagi koplab yodgorliklarning vayron bo‘lishiga sabab bo‘ldi,shu jumladan Quva Budda ibodatxonasining vayron bo‘lishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Axrorov.I.Kirpicheobjigatelnaya pech XI v. na starom gorodishe Kuva.IMKU,vip.3.Tashkent,1961.
2.Bulatova.B.A.Drevnyaya Kuva.Fan.Tashkent.1972.
3.Shishkin.B.A.Uzbekistanskaya arxeologicheskaya ekspeditsiya AN Uz SSR.IMKU-2.Tashkent.1961.
4.Shishkin.B.A.Uzbekistanskaya arxeologicheskaya ekspeditsiya AN Uz SSR.IMKU-3.Tashkent.1962.
5. Bulatova.B.A.IMKU-6.Tashkent.1965.
6.Bartold.V.V.Turkestan v epoxu mongolskogo nashestvie.ch,II.SP.1900.
7.Isamiddinov.M,Xasanov.M,Qambarov.N.2022 yilda Quva arkida olib borilgan qazishma ishlari.FarDu ilmiy habarlar,4-son.2023.
8.Varxatova.D.P.Takentepa.IMKU-5.Tashkent.1964.
9.Bulatova.V.V.Buddiyskiy xram v Kuve.Sovetskaya arxeologiya,vip.-3.1961